

**BOSH QOMUSIMIZ BO'LGAN KONSTITUTSIYAMIZ BIZNING FAXRIMIZ
G'URURIMIZDIR****Chubayeva Farangiz Qo`ldosh qizi***Termiz davlat pedagogika instituti o`qituvchisi***Eshquvvatova Nilufar Nurmuhammad qizi***Termiz davlat pedagogika instituti talabasi*

Annotatsiya: *O'zbekiston istiqlolga erishgach, islohotlarning ilk davri bosh Qomusimiz Konstitutsiyamiz qabul qilinishi bilan boshlandi. Konstitutsiyamiz-baxtimiz qomusidir. Agar insonlar har birining huquq bir-birining huquq va majburiyatlarni paymol qilmasa, konstitutsiyamizda belgilangan qonunlarga rioya qilsa, yurtimiz tinch, obod, osoyishta bo'ladi. O'zbekistonda yashab turgan har bir fuqaro konstitutsiyamizdan to'laqonlikcha foydalana oladilar.*

Tayanch so'zlar: *Konstitutsiya, istiqlol, qomusimiz, farovon, davlat, manfaat, fuqaro, islohot.*

Ma'lumki, bosh qomusimiz mustaqilligimizni mustahkamlash xalqimizning tinch, osuda, farovon hayotini ta'minlashning muhim asosidir. Uning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini keng targ'ib etish aholi ayniqsa, yoshlar ongida vatanga sadoqat, qonunlarimizga hurmat tuyg'usini mustahkamlashga yordam beradi, yangilangan konstitutsiya mamlakat millat xalq sifatida keyingi qadamlarimiz aniqlab olish uchun g'oyat ahamiyatli vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Inson huquq va erkinliklari kafolatlari sezilarli darajada kuchaytirilmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonda o'lim jazosi ta'qiqlangan. Davlatimizda barcha sohalarda konstitutsiyamizga rioya qilish talab qilinadi. Aytish joiz kerakki, 1992-yil 8 dekabrda 12 chaqiriq, O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashining 11 sessiyasida qabul qilingan. Konstitutsiyamiz mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini barpo etishning huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda. Allohga shukurlar bo'lsinki, biz mustaqillikka erishdik, shu bilan Konstitutsiyamizga ham ega bo'ldik. O'zbekiston istiqlolga erishgach, islohotlarning ilk davri, bosh qomusimiz Konstitutsiyamiz qabul qilinishi bilan boshlandi. Konstitutsiyamiz-baxtimiz qomusidir. Agar insonlar bir birining huquq va majburiyatlarini paymol qilmasa, Konstitutsiyamizda belgilangan qonunlarga rioya qilsa, yurtimiz tinch, obod, osoyishta bo'ladi.

Ma'lumki davlat va jamiyat hayotida ba'zi narsalar boladiki, vatanimiz kabi yagona bayrog'imiz bitta gerbimiz bitta madhiyamiz bitta shu qatori konstitutsiyamiz ham. Ularning har biri o'z timsolida ona vatanimiz xalqimizning ezgu maqsadlarini o'zida aks ettiradi. Shu ma'noda konstitutsiyamiz har bir fuqaro uchun bayrog'imiz gerbimiz madhiyamiz kabi muqaddasdir. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev, "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi"-deb ta'kidlab o'tgan. Bu borada yurtimizda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, konstitutsiyamizda inson manfaatlari ustun qo'yilgan. Konstitutsiyamiz o'zining insonparvarligi bilan ham ajralib turadi. Unga ko'ra, voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning

huquqlari davlat himoyasidadir. Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda kafolatlangan huquqlardan har birimiz o'rnida foydalana olsak, hamisha har yerda huquqlarimiz ta'minlanishiga erishamiz.

Konstitutsiyamiz yoshlarga jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Har kim munosib mehnat qilish, kasb-hunarni erkin tanlash, qulay mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega. Bugun yurtimizda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan barcha sa'y-harakatlar har bir O'zbekiston fuqarosining hayotdan rozi bo'lib yashashiga qaratilgan. O'zbekistonda yashab turgan har bir fuqaro Konstitutsiyamizdagi erkinliklaridan to'laqonlikcha foydalana oladilar. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining yangi tahriri 2023yilning 1may kundan kuchga kirdi. Konstitutsiyamizning yangi tahriri 30 aprel kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda qabul qilindi. Yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida 6 bo'lim 27 bob va 155 ta moddadan iborat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi oliy yuridik shaxsga ega.

Yurtimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlarini, ularning an'analari hurmat qilinishini ta'minlanishi, rivojlanishi Konstitutsiyamizda alohida o'rin olgan. O'zbekiston Konstitutsiyasi milliy bayram bolganligi uchun dam olish kuni deb e'lon qilingan. Bosh qomusimiz butun O'zbekistonimiz bo'ylab barcha o'quv dargohlari, tashkilot, muassasalarida keng nishonlanadi. Konstitutsiyamizda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish fuqarolar uchun majburiydir. O'zbekistonni himoya qilish-har bir fuqaroning burchidir. Fuqarolar harbiy xizmatni o'tashga majburdirlar. Konstitutsiyamizdagi qonunlar har bir fuqaro uchun, ya'ni biz uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2020.
2. Sh.Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017.
3. O.T.Husanov “Konstitutsiyaviy huquq”. – T. “ILM-ZIYO” 2017.
4. Раҳмонов, М. (2023). ҲИС-ҲАЯЖОН ВА САЛОМАТЛИК. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(15), 55-63.
5. Раҳмонов, М. (2021). СЎЗНИНГ САЛОМАТЛИККА ТАЪСИРИ. Scientific journal of the Fergana State University, (6), 42-42.
6. Uktamovna, M. M. (2023, October). EPITET TARIXI VA NAZARIYASIGA BIR NAZAR. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 127-132).
7. Uktamovna, M. M. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI. OBRAZLI EPITETLAR. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(23), 439-444.
8. Mamadjanova, M. (2023). ESSENTIAL CHARACTERISTICS OF EPITHET. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(10), 89-91.
9. Uktamovna, M. M. (2022). EPITETNING LINGVISTIK TABIATI. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMYIY JURNALI, 2(8), 26-30

10. Uktamovna, M. M. (2023). TRANSFERRED EPITHET IN ENGLISH LANGUAGE. Научный Фокус, 1(1), 921-924.